


## SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- dekabr)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar- dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 10989,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,9% ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1322,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 70,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tovar aylanmasi 9666,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1026,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6% ga ko'paygan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (33,1%), Termiz (7,5%), Sariosiyo (5,6%), Denov (5,3%), Boysun (4,1%), Qiziriq (4,0%), Oltinsoy (3,7%) va Sherobod tumanlarida (3,6%) qayd etildi.


## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 70,8 % ga o'sdi va 1322,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,0 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 9666,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,8 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,0% ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (98,6 %), Uzun (98,2 %), Denov (97,1%) va Sho'rchi (96,4%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,0% ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (36,3 %), Termiz (16,8%) va Jarqo'rg'on tumanlarida (5,8 %) kuzatilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Termez shahri (24,4 %), Denov tumani (21,5%), Sho'rchi (8,6%), Sherobod (5,3%) va Jarqo'rg'on (5,2%) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda




**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari va yirik korxonalarning  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
--	------------------------------	---	---	---

<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1322,8</b>	<b>170,8</b>	<b>9666,7</b>	<b>104,8</b>
Termiz Sh.	972,2	251,8	1707,0	105,0
Oltinsoy	17,7	86,1	446,0	104,5
Angor	19,5	84,0	439,2	104,4
Boysun	23,3	100,9	423,2	104,3
Muzrabot	6,2	64,6	425,5	104,3
Denov	68,7	87,5	2291,7	105,9
Jarqo'rg'on	33,3	90,7	538,5	104,4
Qumqo'rg'on	22,2	85,0	434,6	104,8
Qiziriq	19,7	97,7	461,9	104,3
Sariosiyo	26,1	112,5	422,6	105,2
Termiz	43,1	122,8	213,8	104,9
Uzun	7,3	46,5	393,8	104,6
Sherobod	29,0	86,2	554,3	104,7
Sho'rcchi	34,5	80,8	914,6	102,5

### Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar- dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 4227,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Termez shahri (18464,6 ming so'm), Denov (6282,8 ming so'm), va Sho'rchi tumanida (4666,2 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Qumqo'rg'on tumanida (1919,9 ming so'm), Sariosiyo (2223,4 ming so'm) va Uzun tumanida (2352,6 ming so'm) qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>4227,4</b>	<b>107,4</b>
Termiz Sh.	18464,6	132,9
Oltinsoy	2694,5	102,5
Angor	3547,2	102,2
Boysun	3793,6	100,7
Muzrabot	3119,3	102,3
Denov	6282,8	107,9
Jarqo'rg'on	2683,3	102,3
Qumqo'rg'on	1919,9	97,8
Qiziriq	2843,0	102,3
Sariosiyo	2223,4	104,0
Termiz	2407,1	105,5
Uzun	2352,6	101,9
Sherobod	3089,5	100,5
Sho'rchi	4666,2	99,7

Jumladan, 2019 yilning yanvar- dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9% ni tashkil etib, 211,3 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,4% o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,7% kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


## SURXONDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- dekabr )

Yanvar- dekabr oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2439,9 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 4,2 % ga ko'paydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar- dekabr oylari yakunlariga ko'ra, 1566,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,4 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 64,2% ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Boysun (95,7%), Termiz (94,0%), Uzun (92,8%) , Angor (87,5%), va Sherobod (83,0%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

### Yirik va kichik biznesning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 35,8 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasining aksariyati Qumqo'rg'on (72,1%), Muzrabot (83,7%) va Jarqo'rg'on (54,5%) tumanlarida kuzatildi.



### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2439,9</b>	<b>104,2</b>	<b>873,2</b>	<b>100,6</b>	<b>1566,7</b>	<b>106,4</b>
Termiz sh.	557,3	104,1	285,3	102,3	272,0	106,1
Oltinsoy	135,9	100,6	47,3	92,0	88,6	105,9
Angor	120,8	107,2	15,1	116,0	105,7	106,0
Boysun	27,8	105,1	1,2	89,1	26,6	105,9
Muzrabot	90,1	111,4	75,4	112,6	14,7	105,7
Denov	335,3	100,9	104,6	89,1	230,7	107,4
Jarqo'rg'on	235,0	117,2	128,1	126,0	106,9	108,1
Qumqo'rg'on	85,1	99,4	61,3	96,9	23,8	106,4
Qiziriq	91,5	93,6	37,0	79,2	54,5	106,7
Sariosiyo	150,4	134,2	42,7	349,7	107,7	107,9
Termiz t.	225,2	90,3	13,6	28,0	211,6	105,3
Uzun	110,4	97,9	8,0	51,4	102,4	105,4
Sherobod	213,0	111,3	36,2	144,3	176,8	106,3
Sho'rchi	62,1	90,5	17,4	66,1	44,7	105,8

### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Termiz tumanida (90,3 %) va eng yuqori o'sish esa Sariosiyo tumanida (134,2 %) qayt etilgan.

Surxondaryo viloyat statistika  
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
(0371) 230-85-82